

Bibirajab Yuldosheva
BuxDU dotsenti
Nilufar Erkinova
BuxDU Tarix va yuridik fakulteti talabasi

O‘ZBEKISTONNING TABIIY TARIXIY GEOGRAFIYASI

(1925-1991-YILLAR)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonning sovetlar hukmronligi davridagi tabiiy-tarixiy geografiyasi: mamalakat hududi, chegaralari, iqlimi, suv resurslari, o‘simlik va hayvonot dunyosi hamda tabiiy sharoitlari haqida ma’lumot beriladi. Shuningdek, maqolada 1925-1991-yillar oralig‘idagi O‘zbekistonning tabiiy-iqlimiy jarayonlari hozirgi davr bilan taqqoslanadi.

Kalit so‘zlar: Milliy-hududiy chegaralanish, tabiiy-geografik tavsif, paxtachilik, paxta monopoliyasi, cho‘llashish, qo‘riq yerlar, flora, fauna, mo‘tadil iqlim, subtropik, Orol dengizi, sanoatlashtirish, kollektivlashtirish.

Abstract: This article provides information about the natural and historical geography of Uzbekistan during the Soviet rule: the country's territory, borders, climate, water resources, flora and fauna, and natural conditions. Also, the article compares the natural and climatic processes of Uzbekistan between 1925 and 1991 with the current period.

Key words: National-territorial demarcation, natural-geographic description, cotton cultivation, cotton monopoly, desertification, protected lands, flora, fauna, temperate climate, subtropical, Aral Sea, industrialization, collectivization.

KIRISH.

O‘zbekiston 1925-1991-yillar davomida SSSR tarkibiga kirgan milliy respublika bo‘lib, O‘zbekiston sovet sotsialistik respublikasi nomi bilan yuritildi. Respublika 1991-yil 31-avgustda mustaqillikni e‘lon qildi va O‘zbekiston Respublikasiga aylandi. O‘rta Osiyoda SSSR tomonidan o‘tkazilgan milliy-hududiy chegaralanish o‘tkazilishi natijasida tashkil topgan. Turkiston avtonom sovet sotsialistik respublikasi, Buxoro xalq sovet respublikasi va Xorazm xalq sovet respublikasi hududlarining asosan o‘zbeklar va qoraqalpoqlar yashaydigan qismlarida vujudga kelgan [1;286]. O‘zbekiston SSR hududi shimol va shimoli-g‘arbda Qozog‘iston SSR, janubi-g‘arbda Turkmaniston SSR, janubi-sharqda Tojikiston SSR, shimoli-sharqda Qirg‘iziston SSR, janubida Afg‘oniston bilan chegaradosh bo‘lgan.

O‘zbekiston O‘rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan bo‘lib, tabiiy geografik chegaralanishiga ko‘ra hududining asosiy qismi Amudaryo bilan Sirdaryo orasiga mo‘tadil va subtropik iqlim mintaqalariga to‘ri keladi. O‘zbekistonning eng shimoliy nuqtasi Ustyurt platosining shimoli-sharqida, Orol dengizi qirg‘og‘ida bo‘lib, eng janubiy nuqtasi esa Termiz shahri yonida, Amudaryo qirg‘og‘idan o‘tadi. Respublikaning eng g‘arbiy nuqtasi Ustyurt platosida, eng sharqiy nuqtasi esa O‘zbekiston bilan Qirg‘iziston chegarasida, O‘zgan shahri yaqinidan o‘tgan. 447 400 km². Aholisi 5 milliondan ortiq (1926), 6,4 million (1939), 8,3 million (1959), 11,8 million (1970), 15,4 million (1979), 20 millionga yaqin (1989) kishi. O‘zSSRda o‘zbeklar (14 milliondan oshiq), qoraqalpoqlar (411 900), tojiklar (933 600), qozoqlar (808 200), qirg‘izlar (174 900), turkmanlar (121 600) yashagan (1989) [2:173].

ASOSIY QISM

O'zbekistonning tabiiy muhiti xilma-xil bo'lib, Osiyo jumladan Turkiston (O'zbekiston) hududini bir butun tabiiy geografik tarixini o'rganish bilan V.N Cheterkin (1944), P.S.Makeev (1956), M.A.Glazovskaya (1953), T.V.Zvonkova (1961), L.N.Babushkin (1964), N.A.Gvozdetskiy (1968), N.A.Kogay (1979) ning olib borgan tatqiqotlari va ilmiy izlanishlari diqqatga sazovordir [3:56].

Tabiiy tuzulishi jihatidan hudud ikkiga: tog' va tekislikkga ajratiladi. mamlakat hududining deyarli 80 foizini tashkil etuvchi tekisliklar va cho'l relyefidan tortib sharqdagi dengiz sathidan 4500 metr (14800 fut) balandlikdagi tog' cho'qqilarigacha xilma-xil relyeflar ko'zga tashlanadi. Bunday relyeflarning eng yiriklari quyidagilar: O'zbekistonning sharqiy va janubi-sharqiy qismi tog' tizmalari bilan ajralib turgan bo'lib, Tyanshan qo'shni Qirg'iziston va Tojikistonda katta qismi o'tgan. Mazkur tizma Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasida tabiiy chegarani tashkil etuvchi tog'dir [4:10]. Ulkan tekisliklar g'arbiy, markaziy va shimoliy-g'arbiy qismini egallagan. Qizilqum (Turkcha "qizil qum" - ruscha Qizil Kum) cho'l, janub bilan birgalikda Qozog'iston, O'zbekistonning shimoliy pasttekislik qismida hukmronlik qiladi.

Eng yirik cho'llardan biri Mirzacho'l bo'lib 1917-yilda Mirzacho'lni tadqiq etgan V. F. Karavaev yozadi: «Cho'lga kelib qolgan kuzatuvchining ko'z o'ngida hayotdan asar ham ko'rinmaydigan, quyosh jazirasidan qovjirab qurigan giyohlarning sarg'ish-kulrang kengligi namoyon bo'ladi, ayrim joylarda oppoq dog'lar va ba'zida cho'l o'simliklarining butalari ko'zga chalinib qoladi» [5 :52]. 1956-yilda sobiq ittifoq hukumatining Mirzacho'ldagi qo'riq yerlarni o'zlashtirish to'g'risidagi qaroriga asosan bu yerda 1956-65-yillar davomida 84ming gektar yer maydonlari o'zlashtirildi. 1957-yilda Yangiyer va 1961-yilda Guliston shaharlari vujudga keldi. Jizzax cho'lida 70 ming gektardan ziyod yangi yerlar o'zlashtirilib, bu yerlarda Mirzacho'l (1967 yil), Do'stlik (1970 yil), Zafarobod (1973 yil), Amasoy (1977 yil) tumanlari tashkil etildi. 1973 yilning 29-dekabrida respublika tarkibida yangi Jizzax viloyati tashkil etildi.

Iqlim tabiiy muhitning eng muhim belgisi hisblanadi. O'zbekiston kontinental iqlimga ega, uzoq davom etadigan jazirama issiq va quruq yoz bilan tavsiflanadi. O'zbekistonning iqlimi uning geografik o'rni va u bilan bog'liq holda quyosh radiyasiyasi, atmosfera sirkulyasiyasi, relyefi, yer yuzasining holati, iqlimga kishilar xo'jalik faoliyatining ta'siri natijasida tashkil topadi. Iyul oyining o'rtacha harorati janubiy cho'l zonasining shimolida +27°C +28°C bo'lsa, janubida +31°C +32°C ni tashkil yetadi. Eng yuqori harorat esa ba'zan +50°C gacha yetadi. Sibir antitsikloni kirib kelganda eng past harorat shimolda -32°C gacha, janubda -26°C gacha tushib ketganligi kuzatiladi. 1929-1930-yillarda qishda sovuq Ashxabadda -22°C, Kattaqo'rg'onda -30°C bo'lgan [6:41].

O'zbekistonning tabiiy muhitining yana bir muhim xususiyati bu mamlakatning aksariyat qismida hukmronlik qiladigan muhim seysmik faollikdir. Darhaqiqat, O'zbekiston poytaxtining katta qismi Toshkent, mayorda vayron qilingan 1966-yilda zilzila va boshqa zilzilalar Toshkent falokatidan oldin va keyin katta zarar etkazgan. Tog'li hududlar ayniqsa zilzilalarga moyil bo'ladi. O'zbekistonning boy va xilma-xil tabiiy muhitiga qaramay, Sovet Ittifoqidagi o'nlab yillardagi ekologik e'tiborsizlik, agrokimyoviy moddalardan juda ko'p foydalanish, qazilma boyliklarni haddan ortiq qazib olinishi yer ostidagi bo'shliqlar paydo bo'lishiga va seysmik faol zilzilalarni tez-tez bo'lish xavfini paydo qildi.

O'zbekiston tabiiy geografiyasida suv resurslari ham alohida o'rin egallaydi. Amudaryo va Sirdaryo asosiy suv manbaya bo'lib, ekin maydonlarini sug'orish uchun ishlatiladi va ekin maydonlarini etkazib berishni kengaytirish uchun bir nechta sun'iy kanallar ham qurildi. Sovet hokimiyati O'zbekiston va qo'shni hududlardagi irrigatsiya sohasiga alohida ahamiyat berdi. Bundan ko'zlangan maqsad paxtachilik sohasini rivojlantirish va qo'riq yerlarni ochish edi. 1929-1933-yillarda 234,9 mln rubl pul sarflandi. Shu maqsadda Katta Farg'ona kanali 45 kun

ichida qurib bitkazildi. 1950-yili Markazning Bosh Turkman kanali qurulishi to'g'risidagi qarori qabul qilindi [2:170]. Bu kanal Xorazm vohasi orqali Shimoliy Turkmaniston bo'ylab o'tar va Amudaryoning qadimgi o'zani bo'ylab Kaspiy dengizigacha borar edi. Biroq 1952-yilda Bosh turkman kanalining qurilishi boshqa loyiha bo'yicha bordi, uni amalga oshirish natijasida Qoraqum kanali vujudga keldi. Hozirgi kunda O'zbekistondagi mavjud daryolar yordamida 5-5,5 mln gektar yerlarni sug'orish imkoniyati mavjud.

Respublika o'simliklarning balandlik mintaqa buyisha o'zgarishini K. Zokirov taqdim etgan quyidagi mintaqalanish bo'yicha bo'lamiz: cho'l, adir, tog' va yaylov [8:37]. O'zbekiston yer maydonining 70% ni cho'l o'simliklari ishg'ol qiladi. Cho'l mintaqasiga O'zbekistonning Qizilqum, Qarshi, Mirzacho'l kabi cho'llari, Markaziy Farg'ona, Ustyurt, Quyi Amudaryo, Quyi Zarafshon va Quyi Surxondaryo kabi regionlari kiradi. Qadimdan cho'llarda issiqqa chidamli saksovul, yulg'un, kakra, yantoq kabi o'simliklar o'sgan. Adir o'simliklari shifobaxshligi va foydaliligi bilan farqlanadi. Tog'dagi yaylovlar azaldan chorvani boqish uchun samarali o'simliklarga boy bo'lgan. Bu yerdagi o'simliklarning 90 foizi chorva mollari uchun ozuqa vazifasini bajargan.

O'zbekiston faunasining o'ziga xos tomoni shundaki, unda hayvonot dunyosining turlari ko'p bo'lib, sutemizuvchilarning 97 turi, sudralib yuruvshilarning 57 turi, qushlarning 410 turi mavjud. Ulardan jayron, sayg'oq, burama shoxli tog' eshkisi, Buxoro bug'usi va boshqalar "Qizil kitob"ga kiritilgan. Hayvonlarning ba'zilari ovlanadi, shulardan terisi uchun tulki, chiyabo'ri, bo'rsiq va boshqalar ovlanadi. 1950-yildan boshlab ondatralar tayyorlanmoqda. Ularni daryo bo'ylarida suvli joylarda ko'paytiriladi. Lekin O'zbekiston tabiiy geografiyasida 2-jahon urushidan so'ng keskin darajada ekologiyaning buzulishi ko'pgina muammolarini keltirib chiqardi. Paxta monokulturasining vujudga kelishi natijasida har yili Orolga borib quyiladigan 12-15 mln m³ suv o'rniga 3,5 mln m³ suv borib quyiladi. 1960-1985-yillarda 200 mln km³ suv turli maqsadlarda sarflandi va Orolga borib tushmadi [9:31]. Orol qum sahrosi paydo bo'ldi va har bir litr suvda 27 gramm tuz hosil bo'ldi. Oqibatda Amudaryo deltasida 800 000 gektar qamishzor qurib, bu yerdagi hayvonot dunyosi qirilib ketadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda O'zbekistonning 1925-1991-yillar davomidagi tabiiy tarixiy geografiyasi qator kamchilik va muammolarga qaramasdan davlatchiligimiz tarixini o'rganishga katta yordam beradi. Bu jarayonlarni hozirgi zamon voqealari bilan solishtirish, tahlil qilish orqali biz bugungi kundagi ko'plab ekologik va tabiiy muammolarga javob topa olamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Usmonov Q va boshq. O'zbekiston tarixi Toshkent, «Iqtisod-Moliya» 2006.
2. Saidboboyev Z. Tarixiy geografiya. Toshkent, «Noshir» 2010.
3. Baratov P va boshq. "O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi". Toshkent, "O'qituvchi". 2002.
4. To'yhiboyev B. "Tarixiy geografiya" (Sirdaryo o'lkasi qadimgi va o'rta asrlar tarixiy geografiyasi) fanidan o'quv qo'llanma. Toshkent – 2023.
5. Караваев В.Ф. Голодная степь в её прошлом и настоящем. Статистический очерк. Петроград, 1914.
6. Abdunazarov L va boshq. "Markaziy Osiyo geografiyasi". 2017-yil, 167 bet.

7. Buxorov M., Abduraxmonov P., S.Norqobilov. (2022) O‘zbekiston Respublikasi tarixiy geografiyasi (1991-2020). Eurasian journal of academic research.
8. Mo'minov A va boshq. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. Toshkent, O'qituvchi. 1984.
9. Hayitov Sh., M. Orziyev. Tarixiy geografiya, Buxoro. - 2008.
10. Yuldosheva, B., & Hazratov, S. (2024). O ‘ZBEKISTONDA SOVET HUKUMATI TOMONIDAN AMALGA OSHIRILGAN AGRAR TADBIRLAR. *IQRO INDEXING*, 9(2), 398-404.
11. Yusupova, M. (2022). БУХОРО ВОҲАСИ МАРОСИМЛАРИДА ПИШИРИЛАДИГАН ТАОМЛАР ВА УЛАРНИНГ БУГУНГИ КУНДАГИ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 21(21).
12. Aymatova, Z. (2023). XIX ASRDA O ‘RTA OSIYO MUSULMONLARINING HAJ ZIYORATI. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 40(40).
13. Aymatova, Z. (2023). Properties of the Citizens of the Emirate of Bukhara (End of the 19th and the Beginning of the 20th Century). *Центр научных публикаций (buxdu. Uz)*, 40(40).
14. Hayitov, J. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА МЕВАЛИ ДАРАХТЛАРНИНГ МАҲАЛЛИЙ ВА ХОРИЖИЙ НАВЛАРИ ТАРИХИГА ДОИР. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)*, 27(27).
15. ugli Latipov, J. L., ugli Ergashev, J. Y., & Raximov, M. M. (2021). The Influence of Turkic Khaghanate Rule on the Political Life of the Khitan Trib